



FILOLOGIYA

VA PEDAGOGIKA

2026-yil
14 (33)-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ
И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY
AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF
THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

**2026-yil
14 (33)-son**

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 31.07.2026 da
nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI**

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vaziri*

Farhod Boqiyev

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri o'rinbosari*

Azizbek Turdiyev

*O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vaziri o'rinbosari*

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" –
"Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching"*

jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori*

Baxtiyor Doniyorov

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nurafshon filiali professori,
filologiya fanlari doktori*

Anatoliy Lixodzievskiy

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

Oksana Gibraltarskaya

*O'zbekiston Milliy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Sherzod Atamuradov

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mohichexra Boltayeva

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
dotsenti, pedagogika fanlari doktori*

Muxtarbay Kurbanov

*Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Anvar Bo'ronov

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Dilmurod Teshaboyev

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Gulhida Ikromova

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Aziza Axmedova

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi*

Iroda Nasimova

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori*

Xadicha Muxitdinova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori, pedagogika fanlari doktori*

Gulnora Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori*

Sevara Ziyayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*

Indira Narkulova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Abduvali Daminov

O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar

*fakulteti huquqiy fanlar kafedrasida katta
o'qituvchisi*

Gulnoza Uzokova

*Qarshi davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi*

Lola Akramova

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti
o'zbek tili va xorijiy tillar,
pedagogika kafedrasida dotsenti*

Zulfiya Ortiqova

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori*

Pulotjon Qaxorov

*Samarqand davlat universitetining
Urgut filiali dotsenti*

Dilafroz Asqarova

*Farg'ona davlat universiteti maktabgacha
ta'lim kafedrasida o'qituvchisi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrda 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Olmos Xurramov. Xayriddin Sultonov ijodida Bobur obrazining badiiy talqini.....	4
Malika Gulamova. Muloqotda harakatga undash taktikalari va strategiyalari	7
Husnigul Jo'rayeva. Bir g'azal sharhi.....	9
Fazilat Ibragimova. Matnda murojaat birliklarining lingvopoetik xususiyatlari.....	11
Nafosat Zaripboyeva. Ijtimoiy mediada gender stereotiplarning kommunikativ transformatsiyasi	14
Maftuna Yunusova. Diskursiv tahlilda tibbiy muloqotning voqelanish asoslari	16
Nigora Axtamova. Qarindoshlik nomlarining ingliz tili bilan qiyosiy tahlili va lakunar birliklari	21
Harigizaxon Abdullaeva. Синкретизм как форма морфологической нейтрализации в английском и русском языках	24
Sevara Jumanova. Promptlar strukturasi lingvistik assimetriya: ingliz va o'zbek tillari misolida chog'ishtirma tarjimashunoslik tahlili.....	26
Obid Rahimov. Прагмалингвистические стратегии цифровой коммуникации в узбекском и русском языках.....	28
Shodiya Qurbonova. O'zbek badiiy diskursida bolalar nutqining sotsiopragmatik tadqiqi.....	30
Anvar Sobirov. Jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlari	32
Baxoroy Abdunabiyeva. Uilyam Sidney Porter va Shukur Xolmirzayev hikoyalarining lingvopoetik xususiyatlari.....	34
Ilhom Eshonqulov. Hashmat Buxoriy asarlarida tarixiy voqelikning badiiy talqini	36
Nigina Rasuleva. 1950–1990-yillardagi G'arb va Xitoy ilmiy fantastikasining rivojlanish tendensiyalari	39
Dilnura Rustamova. Qurbon Muhammadrizoning “Bir siqim tuproq” asarida peyzaj qahramon ruhiy olamini aks ettirish vositasi sifatida	42
Nodiraxon Shakirova. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida “oila” konseptining etimologik ildizlari va milliy-madaniy xoslanishi	44
Zebo Sabirova. Badiiy psixologizm – adabiy-estetik hodisa	46
Doniyor Hamidov. “Hissiyot” tushunchasi va uni o'rganishning nazariy asoslari.....	48
Malika Mansurova. Abdulla Qodiriy siyomosining dramatik talqini.....	52
Nafisa Azimboyeva. XXI asr o'zbek badiiy tarjimalarida poetik birliklarni qayta yaratish xususiyatlari (Paulo Koelning “Alkimyogar” romani misolida)	54
Sanjar Azimboyev. Ingliz va o'zbek diplomatik nutqlarida pragmatik markerlarning kommunikati funksiyalari.....	57
Munisa Nazarova. Ingliz va o'zbek tillari diskursida sukutning kognitiv-psixolingvistik xususiyatlari	60
Nozima Abdullayeva. O'zbek, ingliz va arab tillaridagi salomatlikka oid maqollarda somatizmlarning qiyosiy tahlili.....	62
Dildora Raxmonova. Jadid adabiyotida Ovro'po madaniyatining badiiy talqini: Abdulla Avloniy ijodi misolida	65
Shohsanam Kimsanboyeva. “Sayohat xotiralari”da joy nomlari va tarixiy voqealarning yoritilishi	67
Gavxarbonu Xoshimova. Sirojiddin Sayyid ijodida quyosh obrazi talqini.....	70
Zulxumor Mirzayeva. Ingliz va o'zbek tillarida aksiologik konseptlarning frazeosemantik maydon doirasida qiyosiy-lingvokulturologik tahlili.....	72
Oliya Qodirova. “Lison ut-tayr” dostoni nashrlarida matniy tafovutlarning qiyosiy tahlili	74
Muxtarbay Kurbanov. Qang'li etnonimi haqida ayrim mulohazalar.....	76
Konisbay Sarsenbaev, Omar Saparmatov. The Use of Metonymies in the Works of Poet Kunkhoja	78

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Sayyora Islomxo'jayeva. "Lingvistik kompetentlik" tushunchasi va uning o'quv jarayonidagi o'рни.....	80
Азизбек Султанбаев. Влияние технологий искусственного интеллекта на качество учебного процесса в цифровой образовательной среде.....	88
Шахло Джамалдинова. Инновационные педагогические технологии как средство развития эмоционально-коммуникативных компетенций студентов медицинских вузов.....	90
To'liqjon G'ofurov. O'quv amaliyoti jarayonida talabalarning kasbiy mobilligini dual ta'lim asosida rivojlantirish metodikasi	94
Inoyatxon Normahamatova. Kollaborativ yondashuvning turli yosh bosqichlaridagi o'quvchilarga pedagogik-psixologik ta'sirini qiyosiy o'rganish	96
Sevara Kurbanova. Axborot asrida o'qituvchining kasbiy identifikatsiyasi va o'z-o'ziga ishonchi: zamonaviy pedagogik yondashuvlar	99
Gulhayo Tolibova. Kompetensiyaviy ta'limda matnning didaktik salohiyati	101
Sevara Xudoyqulova. Talabalarga xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish	103
Muborak Azimova. The Role of Assessment in Vocabulary Teaching Using Mall in English Teaching.....	105
Saida Ergasheva. Madaniyat va san'at menejerlarida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	108
Guljahon Ergasheva. Ona tili mashg'ulotlarida matn ustida ishlash	110
Oliya Najmiddinova. Curriculum Framework and Curriculum Reform in Uzbekistan.....	112
Dildor Norqulova. Portret janriga oid materiallar vositasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari.....	114
Nilufar Oymatova. Adabiyot ta'limida o'yin texnologiyalari: nazariy-metodik tahlil.....	116
Rustam Turopov. Maktablarda sifatli ta'lim muhitini yaratishda o'qituvchilarning o'рни	119

Nilufar OYMATOVA,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

ADABIYOT TA'LIMIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI: NAZARIY-METODIK TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarda ijodkorlikni, mustaqil ishlashni hamda qiziqib mutolaa qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan "Harfli o'yin" metodining nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqot milliy pedagogika namoyandalari ishlanmalari hamda xorijda o'tkazilgan tizimli tahlillar va tajriba-sinov tadqiqotlari natijalariga tayangan holda olib borilgan. Metodning amaliyotga tatbiq etilishi ko'rgazmali namunalar asosida tahlil qilinib, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq va asoslangan tavsiyalar alohida bo'lim sifatida ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, "Harfli o'yin" metodi, gamifikatsiya, ta'lim samaradorligi, integratsiya, xotirani mustahkamlash, mustaqil fikrlash, unutish egri chizig'i.

Annotation. This article presents the theoretical and methodological foundations of the "Letter Game" method, aimed at developing students' creativity, independent work skills, and interest in reading. The study draws on the works of local pedagogical scholars and the results of systematic reviews and empirical studies conducted abroad. Based on illustrative examples, the article analyzes the practical application of the method and offers concrete, evidence-based recommendations for improving its effectiveness, presented as a separate section.

Keywords: innovative technology, educational efficiency, integration, memory strengthening, independent thinking.

Аннотация. В статье раскрываются теоретико-методологические основы метода «Буквенная игра», направленного на развитие творческих способностей, самостоятельности и интереса к чтению у учащихся. Исследование опирается на работы отечественных педагогов и результаты зарубежных эмпирических исследований. На основе наглядных примеров разработаны конкретные рекомендации по повышению эффективности метода.

Ключевые слова: инновационная технология, образовательная эффективность, интеграция, укрепление памяти, самостоятельное мышление.

Dunyo pedagogikasida zamonaviy yondashuvlar asosi sifatida qaraladigan muammoli ta'lim adabiyot o'qitish metodikasida turfa xil o'qitish texnologiyalarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Bunday texnologiyalardan samarali foydalanish o'quvchilarning shaxsga yo'naltirilgan kompetentligini rivojlantirishning modernizatsion didaktik tizimini takomillashtirish, akmedidaktik tamoyillar asosida o'quv natijalari sifati va samaradorligini kafolatlash, ta'limning izlanishli, ijodiy shakllarini takomillashtirish ta'lim oluvchilarning pragmatik, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishi misolida o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimiz Uchinchi Renessans sari qadam qo'yayotgan bir vaqtda fan va ta'limga katta e'tibor qaratilishi, bu ikki sohani izchil va uzviylikda rivojlantirish milliy va ma'naviy yuksalish hamda jamiyat taraqqiyotining kafolati sifatida namoyon bo'lishi global ahamiyatga ega. Bu borada, Avloniy ta'biri bilan aytganda, "millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan til va adabiyot" ta'limi komil inson tarbiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari yuzasidan tizimli va chuqur izlanishlar olib borilishi bilan ajralib turadi [1: 36].

Mazkur yo'nalishning davlat siyosati darajasidagi ahamiyati me'yoriy-huquqiy asosga ham ega: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, o'qitish metodikasini takomillashtirish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan [8]. Demak, adabiyot darslarida "Harfli o'yin" kabi interfaol metodlarni qo'llash nafaqat metodik zaruriyat, balki davlat ta'lim siyosatining amaliy ifodasi hamdir.

Xalqaro miqyosda o'tkazilgan so'nggi tizimli tahlillar ham shu yo'nalishni tasdiqlaydi: gamifikatsiya (o'yinlashtirilgan ta'lim) usullarining o'quvchi motivatsiyasi va bilim o'zlashtirish sifatiga ta'sirini o'rgangan ko'plab ilmiy ishlarni umumlashtirgan tizimli sharh natijalariga ko'ra, tahlil qilingan tadqiqotlarning yarmidan ortig'ida o'quvchilarning faollik, ishtirok va motivatsiya darajasi sezilarli oshgani, uchdan bir qismida esa bevosita akademik natijalarning yaxshilanishi qayd

etilgan [2]. Bu ma'lumotlar "Harfli o'yin" kabi milliy pedagogik amaliyotda sinalgan metodlarning ilmiy asoslanganligini xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan ham tasdiqlaydi.

"Adabiyot o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan ancha keskin farq qiladi. Shunga ko'ra, uni fan sifatida qaraydiganlar bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o'qitishni san'at turi sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar ham kam emas", – deb ta'kidlaydi taniqli olim Boqijon To'xliyev [5: 3]. Olimning boshqa ishlarida ham filologik ta'limda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish zarurati alohida asoslab berilgan [5: 155].

Shuningdek, Q.Yo'ldoshevning umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslariga bag'ishlangan tadqiqotida ham zamonaviy metodikaning shakllanishi bevosita o'quvchi qiziqishini uyg'otuvchi vositalar bilan bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan [7]. Shu bilan birga, ushbu ishlarda "Harfli o'yin" kabi so'z-harf o'yinlariga asoslangan alohida metodikaning adabiyot darslari kontekstida qo'llanilishi va uning empirik samaradorligi masalasi yetarlicha yoritilmagan – aynan shu bo'shliq mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

"Harfli o'yin" metodini xorijdagi krossvord metodikasining soddasi deb baholash noto'g'ri bo'lardi. Ularning tub farqi shundaki, krossvord odatda leksik birlik (so'z ma'nosi) ni tekshirishga qaratilgan bo'lsa, "Harfli o'yin" badiiy asar mazmuni, syujet detali, obraz yoki geografik-tarixiy kontekst kabi adabiy-kontekstual bilimni tekshirishga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur metodni "kontekstual harfli o'yin" deb atash mumkin. Bunda o'quvchi nafaqat so'zni, balki asar matni bilan bog'liq voqelikni faol tarzda qayta tiklaydi. Bu jihat metodning adabiyot ta'limidagi o'rnini lug'at o'rgatish vositalaridan farqli, badiiy matn tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiruvchi vosita darajasiga ko'taradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, an'anaviy so'roq-javob usulida o'qituvchi javobning to'g'ri yoki noto'g'riligini alohida tekshirishi zarur bo'lsa, "Harfli o'yin"da javob harflar tarkibiga mos kelish-kelmasligi orqali o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Zamonaviy gamifikatsiya nazariyasida ta'kidlanganidek, aynan shunday tezkor teskari

aloqa (feedback) mavjudligi o'quvchining xato ustida darhol ishlashiga va o'z bilim darajasini real vaqt rejimida anglashiga xizmat qiladi [2]. Bu esa mazkur metodning nafaqat qiziqarli, balki metodik jihatdan ham asoslangan ekanligini ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida yangi axborot va ma'lumotlarni bayon qilishning an'anaviy shakli, o'qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslarning ma'ruza shaklida olib borilishi zerikarli bo'lishi o'quvchilarda o'qishga nisbatan loqaydlik tuyg'usini hosil qiladi. Adabiyot darslarida mumtoz adabiyotni tushunish bilan bog'liq muammolarning asosiy sabablaridan biri badiiy adabiyotda tasvirlangan voqelikning hayot haqiqatiga mos kela olmasligi hamda V–VI asr oldingi tilimiz shaklining hozirgi shaklidan sezilarli darajada farqlanishidir. Shuning uchun tarixiy va mumtoz asarlarni o'rganishda tabdil ishlari bilan bir qatorda turli zamonaviy vositalar yordamida o'yin texnologiyasiga asoslangan pedagogik jarayonning ta'limga kiritilishi zaruriy va muhim qadamlardan biri hisoblanmoqda.

Umumta'lim maktablarida tarixiy va mumtoz asarlarni, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitishdagi eng jiddiy muammolardan biri ham asarlarni aslyatda o'qib tushunish, o'rganish hamda matn bilan ishlash malakasining yetarli emasligidir. 5–6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim maqsadini o'quvchilar qiziqishi vositasi bilan uyg'unlashtirish eng to'g'ri va samarali usuldir. Shu sababli bugungi o'quvchilarning qiziqishi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularni shoir va yozuvchilarning ijodiga qiziqtirish, asar matnini anglash, asar mohiyatini tushunish va lug'at bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun "Harfli o'yin" metodini qo'llash maqsadga muvofiq keladi.

"Harfli o'yin" metodi o'quvchining xotirasini mustahkamlash, mavzuni mustaqil o'zlashtirish, yodda olib qolish va mustaqil hamda tez fikrlashda yordam beradi. Ushbu metod, asosan, yakka tartibda ishlashni taqozo etadi. Bunda o'quvchilar allomalar hayoti va ijodi haqidagi o'qigan, darslik va qo'shimcha manbalardan olgan ma'lumotlarini qiziqarli va o'yin shaklida mustahkamlab olishadi. Bu metod asosida fanlararo integratsiyani ham amalga oshirish mumkinligi ko'zda tutiladi. Misol sifatida quyidagi namunalarni keltirish mumkin.

6-sinf adabiyot fanidan Rey Bredberi hayoti va ijodi yuzasidan topshiriqli o'yin.

Savol: "Bir kunlik yoz" hikoyasida Margo intiqlik bilan nimani kutar va sog'inari edi?

Q	U	Y	O	SH
---	---	---	---	----

(Javobi: quyosh)

Harflar: SH I O J Q B E D E A U N Z Y L

Yoki keyingi misolda:

Savol: "O'n besh yoshli kapitan" romanidan berilgan parchada "Pilgrim" kemasi qaysi davlatdan Amerikaga yo'lga chiqadi?

Z	E	L	A	N	D	I	Y	A
---	---	---	---	---	---	---	---	---

(Javobi: Zelandiya)

Harflar: Z B X D I A Y E L A N S [4]

Yuqorida keltirilgan namunalardan ko'rish mumkinki, "Harfli o'yin" metodi asosida o'quvchilar badiiy matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi, matn g'oyasini anglashda hamda xotirasini mustahkamlashda yordam beradigan usullardan hisoblanadi. Bunda o'quvchi to'g'ri javobni faqat eslab qolish orqali emas, balki berilgan harflar orasidan mos

harflarni tanlab, mantiqiy taqqoslash yo'li bilan topadi. Bu esa yuqorida qayd etilganidek, xorijiy tadqiqotlarda tasdiqlangan faol qidiruv-taqqoslash mexanizmiga mos keladi [8: 5].

Ushbu o'yin texnologiyasini dars jarayonida qo'llash uchun kompyuterlarning bo'lishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi bu metod orqali dars tashkil qilishda kuzatuvchi sifatida ishtirok etsa, o'quvchi haqiqiy tadqiqotchiga aylanadi. Shuningdek, ushbu metoddan darsdan tashqari jarayonlarda, uy vazifasi sifatida ham foydalanish mumkin. O'quvchi berilgan topshiriqni "Harfli o'yin" metodi orqali uyda mustaqil bajarishi va natijani o'qituvchiga yuborishi mumkin.

"Harfli o'yin" metodining amaliy samaradorligini oshirish, uni tizimli va ilmiy asoslangan tarzda qo'llash maqsadida quyidagi aniq tavsiyalar ishlab chiqildi:

5–6-sinflarda savol-javob birliklari qisqa va aniq faktlarga (qahramon ismi, joy nomi, asosiy detal) qaratilishi, 7–9-sinflarda esa asar g'oyasi, obrazlar tizimi va badiiy-ifoda vositalari bilan bog'liq murakkabroq topshiriqlar joriy etilishi lozim. Bunda har bir topshiriq davlat ta'lim standarti va fan dasturidagi bilim, ko'nikma va malaka talablariga muvofiq tuzilishi shart.

"Harfli o'yin" namunalarini qog'oz shaklidan tashqari, bepul onlayn platformalar yordamida raqamlashtirish tavsiya etiladi. Bu, birinchidan, metodni masofaviy ta'lim va uy vazifasi sifatida qo'llash imkoniyatini kengaytiradi, ikkinchidan, o'quvchi natijasini avtomatik tarzda qayd etish va kuzatib borish imkonini beradi.

O'yin natijalarini faqat qo'shimcha baholash vositasi sifatida qo'llash, uni yakuniy nazorat bahosiga tenglashtirmaslik lozim. Xorijiy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, faqat reyting va mukofotlarga ortiqcha urg'u berish o'quvchining ichki (intrinsik) o'qishga qiziqishini emas, balki tashqi rag'batga bog'liq motivatsiyani kuchaytirib yuborishi, natijada uzoq muddatli samaradorlikka putur yetkazishi mumkin [2]. Shu bois o'yin faqat mavzuni mustahkamlash va qiziqish uyg'otish vositasi sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Adabiy asarlarga oid "Harfli o'yin" topshiriqlariga tarix, geografiya, san'atshunoslik fanlariga oid ma'lumotlarni ham kiritish orqali o'quvchida bir asar atrofida keng dunyoqarash shakllantirish, bilimlarni tizimli tarzda bog'lab olish ko'nikmasini rivojlantirish tavsiya etiladi. Bilimni uzoq muddatga esda saqlash uchun bir marta o'tkazilgan "Harfli o'yin" mashg'ulotini ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, chorak yakunida) qayta, biroz o'zgartirilgan shaklda taqdim etish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotganligi adabiyot darslarini AKT vositalaridan foydalanib o'qitish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu adabiy ta'limda foydalanishning metodik imkoniyatlarini ijodiylik, yosh xususiyati va saviyaga mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, "Harfli o'yin" metodi nafaqat mahalliy pedagogik amaliyotda sinalgan, balki o'zining nazariy asosi bo'yicha xorijda o'tkazilgan tizimli ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan ham uyg'unlashadi [2: 5]. Metodning o'ziga xosligi shundaki, u oddiy lug'at o'rgatish vositasidan farqli o'laroq, badiiy matn mazmuni, obrazlar tizimi va kontekstual bilimlarni faollashtirishga xizmat qiladi, bu esa uni adabiyot ta'limi uchun alohida qimmatli metodik vosita darajasiga ko'taradi.

"Harfli o'yin" metodidan bilimlarni mustahkamlash, uya vazifa berish bosqichlarida qo'llash maqsadga muvofiq. Bunda izlanuvchanlikka xos ta'kidiy, mantiqiy, umumlashtiruvchi texnologiya komponentlari tarkibidagi

estetik idrok etish va o'zlashtirishga doir evristik, pozitivlik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik va motivatsion elementlari bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. O'quvchilarda adabiyot faniga bo'lgan qiziqishni orttirish maqsadida ular bilan maqsadli ishlarni, ijodkorlikka yo'naltiradigan metodlarni qo'llash o'rinli. Chunki ta'lim beruvchi o'qituvchi boshchiligida dars jarayonlarida o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyat olib borishlariga sharoit yaratib berish bevosita ta'lim

sifatini takomillashtirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan amaliy tavsiyalarga rioya qilingan holda joriy etilgan "Harfli o'yin" metodi dars jarayonlarida mavzu doirasida har bir o'quvchining bilimi va qiziqishlarini to'g'ri anglab, faolligini yanada oshirish, ta'lim sifatini rivojlantiradigan muhit yaratish kabi darsdan ko'zlangan asosiy maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. Jaramillo-Mediavilla L., Basantes-Andrade A., Cabezas-González M., Casillas-Martín S. Impact of Gamification on Motivation and Academic Performance: A Systematic Review // Education Sciences, 2024. Vol. 14, №6. – Art. 639. <https://doi.org/10.3390/educsci14060639>.
3. Matreja P.S. va boshq. The usefulness of crossword puzzle as a self-learning tool in pharmacology // Journal of Advances in Medical Education & Professionalism, 2018. Vol. 6, №4. – P. 181–185.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
5. To'xliyev B. Filologik ta'limda innovatsion texnologiyalar // Yangi pedagogik texnologiyalar va adabiyot ta'limi: Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TDPU, 2004. – B. 3.
6. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
7. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. diss. avtoref... – Toshkent, 1996. – 56 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3031-son. <https://lex.uz/docs/4312785>.